



maktabgacha
va maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumi o'rta ta'lim maktabi

3-“ ” SINF RAHBARI


ning

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining
34 yilligiga bag'ishlangan

“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”

shiori ostida tayyorlagan bir soatlik

DARS ISHLANMASI



Darsning mavzusi: Vatan uchun yashaylik!

Mustaqillik shiori: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: - o‘quvchilarning Vatanimiz o‘tmishi, buguni va kelajagi haqidagi bilimlarini rivojlantirish va so‘ngi to‘rt yil ichida ro‘y beragan o‘zgarishlar haqida tushuncha berish.

- o‘quvchilarning o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi o‘zarobog‘liqligini anglashlariga, bu haqda mushohada yuritishlariga turtki berish;

- tasavvur qilish qobiliyatini shakllantirish, mustaqil, erkin fikrlashlariga erishish, guruhlarda hamkorlikni tashkil etish.

Tarbiyaviy: mavzu orqali o‘quvchilarda vatanga muhabbat, qadriyatlarni ulug‘lash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarga vatan taraqqiyotiga hissa qo‘sish, ona- Vatan oldidagi mas’uliyatini singdirib borish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi.

Darsning metodlari: «Muzyorar» suhbat, muommoli usullari

Tayanch kompetensiya elementlari:

Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi: televizor, radiyo, telefon orqali berilgan xabarlarni gapirib bera olish.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarga o‘zini tuta bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi: milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va bir-biridan farqlash.

Darsning jahozi: Darslik, Vatanimizning diqqatga sazovor joylari aks etgan rasmlar, davlatimiz ramzlari rasmlari, turli xil shiorlar, A 4 format, marker, elektron ko‘rgazmalar



Darsning borishi:

O'quvchilar uch guruhga bo'linib, partalarga alohida-alohida joylashadilar. Dars O'zbekiston respublikasi madhiyasini jonli ijro etish bilan boshlanadi. (o'qituvchi) «Muzyorar» metodidan foydalanib, tanishuv mashg'ulotini o'tkazadi. (5 daqiqa)

O'qituvchi: -Aziz o'quvchilar, darsimizni tanishuv mashg'uloti bilan boshlaymiz. Har kim oldin ismini, so'ng ismining bosh harfiga mos fazilatni aytishi kerak. Masalan: Abdulla-a'lochi, Nafisa-nozik, Ulug'bek-uddaburon...

Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar

- Biz nima uchun **Vatanni** onaga qiyoslaymiz?
- Vatanimiz mustaqillikka qachon erishdi?
- Bu kunni hozir qanday nishonlaymiz?
- Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda qanday o'zgarishlar ro'y berdi.
(Bu savolga javob berishda plakatlardan foydalilanadi.)



- «Mustaqillikni mustahkamlash» deganda siz nimani tushunasiz? Buning uchun siz qanday ishlarni amalga oshirishingiz kerak?
- Siz vatan oldidagi burchingiz nimadan iborat deb o'ylaysiz?


Javoblar to'ldirilib umumlashtiriladi.

O'qituvchi: -O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi tasodifiy hodisa bo'lmay , buning ildizi uzoq o'tmishta borib taqaladi. Milliy g'oyaning asosi bo'lmish-mustaqillik, ozodlik va taraqqiyot uchun kurash qadim davrdayoq shakllanib, vaqt o'tishi bilan ildiz otib boravergan. Bosqinchilar milliy g'oyaning beqiyos kuch qudratini anglab uni qo'porib tashlash uchun ayovsiz kurashib kelgan. Lekin milliy g'oya o'zbek xalqining ongi va qalbiga shu darajada chuqur singib ketgan. Daxshatli kuch uni yo'qota olmadi.Aksincha bu g'oya vaqt kelib, xalq qalbidan otilib chiqib, 1991-yil 31-avgustida O'zbekiston Mustaqil va ozod yurtga aylandi.

Har bir guruhga she'rlar tarqatiladi. Guruhda o'qib chiqilgandan so'ng, boshqa guruh she'rlari bir-biri bilan almashtiriladi, shu tariqa guruhlar orasida o'rganiladi. O'qituvchi bilan muhokama qilinadi.

O'qituvchi: - Aql-idrokli, farosatli, jasoratli, vatanparvarlar, mohir tashkilotchi hukmron yuz yillarda bir dunyoga kelgan.

Mustaqillikka erishganimizga ham 34 yil bo'ldi. Keyingi yillarda mamlakatimizda qanday ishlar amalga oshirildi.



5 TASHABBUS BILAN KELAJAK SARI



Sinf taxtasiga vatanimiz taraqqiyotiga oid muhim sanalar va voqealar qayd etilgan jadval ilib qo‘yiladi.

Jadvalda keltirilgan jumlalar mazmuni o‘quvchilar faolligini ta’minlagan holda izohlab boriladi.(15 daqiqa)

O‘quvchilar”**Vatan**”, “**Mustaqillik**”, “**Konstitutsiya** “ haqida she`rlar ijro etadil

Yillar o‘tar, Qomusimiz bo‘lsin omon,
Keng jahonda o‘zbek elim sursin davron.
Doim bo‘lsin o‘zbek elim Qomusli el,
Omon bo‘lsin Qomusli el, nomusli el

Serquyosh hur o‘lkam, deya madh etib,
Kuylayman jamoling, jonajon vatan.
Kelajaging buyuk, toleying ulug‘,
Yo‘llaring nurafshon, nurga kon vatan.

O‘qituvchi tomonidan Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, qabul qilingan qarorlar haqida o‘qituvchi taqdimoti namoyish etiladi(slaydlar asosida).

Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbazarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy-axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yurtimizda yaratilgan keng imkoniyatlarning mingdan biridir.



Respublikamizda ta’lim tizimining rivojlanishi shiddat bilan o’sib bormoqda. Mustaqillikdan avvalgi an’anaviy darslar o’rnini noan’anaviy tarzdagи kompetensiyaviy talimga asoslangan darslar egallayotganligi, ta’lim tizimini tubdan isloh qilinayotganligi, o‘qituvchi maoshi va obro’sini yuksaltirishdagi prezidentimizning olib borayotgan oqilona siyosatlari to‘g’risida suhbat uyushtiriladi va o‘quvchilarni o‘qituvchilik kasbini egallashiga yo’naltiriladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.



O‘quvchilar darsdan olgan bilimlari asosida o‘z fikr va mulohazalarini bildiradilar. Mavzu o‘qituvchi tomonidan umumlashtirilib yakunlanadi.

O‘quvchilar ishtirokini baholash

Uyga vazifa: Mustaqillik va vatan haqida she’r yod olish va rasm chizib kelish.

www.idum.uz veb-sayti ma ’muriyati
hamkorlik va taqdim etilgan fayllar uchun
www.zokirjon.com sayti ma ’muriyatiga o‘z
minnatdorchilik bildiradi

www.zokirjon.com saytidan kerakli fayl va
hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun telefonlar:
+998905306866, +998913977737

Yoki telegram orqali yozishingiz mumkin:
@nza456 yoki @nza445